
1-SEKTOR XABARLARI: TUMAN HOKIMI HUDUDLARDA



Qo'shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbari I.Novikov kunlik ish rejasiga asosan bugun tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 34-umumta'lim maktabida bo'lib, o'quv jarayonlari va qo'shimcha fan to'garaklari faoliyati bilan tanishdi. Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini oliy ta'limga kirish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida o'quvchilarning qiziqishlariga asosan qo'shimcha dars mashg'ulotlari tashkil etish yuzasidan mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi sayloviga munosib tayyorgarlik ko'rish yuzasidan sektor hududidagi saylov uchastkalarida amalga oshirilayotgan ishlar ham o'rganildi. Tuman hokimi tomonidan saylov uchastkalarida olib borilgan xatlov natijalarida aniqlangan muammo va kamchiliklarni qisqa muddatlarda bartaraf etish yuzasidan mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Tuman rahbari Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli 31-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda 1-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti filialida bo'lib, muassasada bolajonlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, sanitariya gigiyeniya qoidalariga hamda oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga alohida e'tibor qaratish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berdi.

Shuningdek, sektor rahbari Solijonobod mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, hududda faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Bunyodkorlik fayzi rivoji" oilaviy korxonasi faoliyati bilan tanishdi. Tuman hokimi tomonidan korxonaga rahbariga faoliyatini kengaytirish hamda yangi ish o'rinlari tashkil etish yuzasidan tegishli takliflar berildi.

Farg'ona viloyati hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari A.Tursunov rahbarligida tumanda faoliyat ko'rsatib kelayotgan fermer xo'jaliklari tomonidan 2021 yil hosili uchun ekilgan paxta va g'alla maydonlarida olib borilayotgan agrotexnik tadbirlarni bajarilishi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar o'rganildi. Viloyat hokimining o'rinbosari A.Tursunov hamda tuman hokimi tomonidan mas'ul korxonaga va tashkilot rahbarlariga 2021 yil hosili uchun ekilgan paxta va g'alla maydonlarida agrotexnik tadbirlarni uyushqoqlik bilan o'tkazish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-05-10 23:17:00